

# **Uzbekistan Airways Urganchga qo‘shimcha aviaqatnovni amalga oshiradi**

**2022 26 April**

“Lazgi” xalqaro raqs festivali ishtirokchilari va mehmonlariga qulaylik yaratish maqsadida, “Uzbekistan Airways” AJ faqatgina 2022-yil 26-aprel kuni Toshkent – Urganch – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha qo‘shimcha aviaqatnovni yo‘lga qo‘yadi.

HY-051 va HY-052 qatnovlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi (mahalliy vaqt):

Toshkentdan jo‘nab ketish 11:00

Urganchga yetib borish 12:30

Urganchdan jo‘nab ketish 13:30

Toshkentga yetib borish 14:50

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com), Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.